



NKMK
Navoiy Kon-Metallurgiya Kombinati

PRESS-RELIZ

2025-yil 11-sentabr

OAV vakillari NKMKda olib borilayotgan geologiya-qidiruv ishlari bilan tanishdi

Ma'lumki, O'zbekiston – ko'plab foydali qazilmalarga boy mamlakat. Ular orasida qimmatbaho metallar alohida o'rin egallaydi. Hozirgi kunda respublikamizda mavjud oltin ma'danli konlarning asosiy qismi Qizilqum kengliklarida joylashgan. Ushbu konlar Navoiy kon-metallurgiya kombinatining resurs bazasini tashkil etadi. Xomashyo zaxiralarini qidirish va aniqlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish kombinat geologiya sohasi zimmasiga yuklangan.

“NKMK” AJ Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi tomonidan olib borilayotgan geologiya-qidiruv ishlari va istiqboldagi rejalar 11-sentabr kuni ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun o'tkazilgan matbuot anjumanida muhokama etildi.

Xususan, qariyb 600 nafar ishchi-xodim ishlab kelayotgan Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi faoliyatining yo'nalishlari foydali qazilma konlarining kon-geologik sharoitlari va ularning texnologik xususiyatlarini baholash, mavjud resurs bazasini kengaytirish va qo'shimcha o'rganish, yangi ochilgan zaxiralar asosida alohida ishlab chiqarish hududlari va konlar uchun geologik va mineral xomashyolarni texnologik xususiyatlarini hisobga olgan holda konlarni iqtisodiy qayta baholashdan iborat.

Bugungi kunda ekspeditsiya tomonidan 23 ta turli rusumdagi zamonaviy, yuqori ish unumdorligiga ega burg'ilash uskunalari yordamida geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda. So'nggi yillarda olib borilagan geologiya-qidiruv ishlari natijasida “Qoraqo'ton”, “Yangi Dovon”, “Ko'Ichiktov”, “Rohat”, “G'arbiy Rohat”, “Beshashi”, “Chormitan”, “Qoqpatas” va boshqa konlarda oltin tarkibli ma'dan zaxiralarini oshirishga erishildi.

- Geologiya-qidiruv ishlarining ko'lam yildan-yilga ortib borayapti. Misol uchun, ekspeditsiya tomonidan 2024-yilda jami 64,4 ming pogona metr burg'ilash ishlari olib borilgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 84,4 pogona metrga

yetkazilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, 15 ta loyiha bo'yicha ham qo'shimcha geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda. kspeditsiyasi tarkibidagi Markaziy, 2, 3 va 4-geologiya-qidiruv partiyalari yangidan qurilgan va zamonaviy jihozlangan binolariga ega. Hozirgi vaqtda bir kunda 400 ta geologik namunani tahlil qilish laboratoriyasini qurish ishlari yakunlanish arafasida, - deydi “NKMK” AJ Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi boshlig'i To'liq Bobonov.

Ekspeditsiya tomonidan olib borilyotgan geologiya-qidiruv ishlarini raqamlashtirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, birlamchi geologik hujjatlarni to'plash va tahlil qilish, mahalliy geologik ma'lumotlar bazasini yaratish va raqamlashtirish, “JORC Code” hisobot standartlariga muvofiq zahiralarni qayta hisoblashda “Micromine”, “Geobank”, “Leapfrog” kabi dasturiy ta'minotlaridan foydalanilmoqda.

Shuningdek, 2025-yilda geologiya-qidiruv ishlari dasturini amalga oshirish maqsadida ekspeditsiya yangi burg'ilash qurilmalari, laboratoriya uskunalari, ochiq va yer osti konchilik ishlarini loyihalashtirish, uch o'lchovli modellashtirish, zaxiralarni baholash imkonini beruvchi zamonaviy dasturiy mahsulotlari bilan ta'minlanishi nazarda tutilgan.

Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

“NKMK” AJ Matbuot xizmati.

